

## YURAK QON-TOMIR KASALLIKLARINING MUHIM IJTIMOYIY-GIGIENIK AHAMIYATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11170388>

**Kenjayeva Sarvinoz Akram qizi**

*Toshkent Tibbiyot Akademiyasining 2-son Davolash fakulteti talabasi*


### ANNOTATSIYA

Yurak qon-tomir sistemasi kasalliklari yurak arteriyalar va venalar kasalliklari hisoblanadi. Bu kasalliklarning ba'zilar yurakni, ayrimlari arteriya yoki venalarni, boshqalari butun yurak qon-tomir sistemasini shikastlaydi. Ushbu maqolada yurak qon-tomir kasalliklarining muhim ijtimoiy-gigienik ahamiyati xususida so'z yuritildi.

### Kalit so'zlar


arterial gipertoniya, dislipidemiya, medikamentoz, septum.

Ma'lumki, yurak-qon tomir tizimi kasalliklari dunyo bo'yicha hozirgi kunga qadar nogironlik va o'limning asosiy sababi ekanligicha qolmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, barcha o'lim ko'rsatgichlarining 31 foizi yurak-qon tomir tizimi kasalliklari oqibatida kelib chiqadi. Yevropa mamlakatlarida yurak-qon tomir kasalliklari yiliga 4,3 mln aholi o'limiga sababchi bo'ladi.



Arterial gipertoniya – qon bosimini 140/90 mm.sim.ust va undan yuqori bo'lishi. Birlamchi, essentsial arterial gipertoniya (shuningdek, gipertonik kasallik) patologik jarayonlar mavjudligi bilan bog'liq emas va zamonaviy sharoitlarda bartaraf etishning imkoni mavjud bo'lgan sabablar tomonidan chaqiriladi. Bu eng keng tarqalgan yurak qon-tomir patologiyasi hisoblanadi. Simptomatik yoki ikkilamchi gipertoniya yurak va qon tomir kasalliklari, endokrin tizim patologiyasi

yoki boshqa holatlarning oqibati sanaladi. Yurak qon-tomir kasalliklari muhim muhim ijtimoiy-gigiyenik ahamiyatga ega. Davlat statistika qo'mitasi xabariga ko'ra 5 yil davomida eng ko'p O'zbekiston Respublikasida 2020-yil vafot etgan fuqarolarning 62,1 foizi holatda aynan qon aylanish tizimi kasalliklari sabab qilib ko'rsatilgan. Keyingi yillarda esa kasallik tufayli o'lim ko'rsatgichi kamayib brogan. (Diagrammada ko'rsatilgan)



Yurak-qon tomir tizimi kasalliklari insonning turmush tarzi va mavjud xavf omillari bilan uzviy bog'liq. Ko'pgina xavf omillari turmush tarzini o'zgartirish orqali nazorat qilinsa, ayrimlari medikamentoz yo'li bilan korreksiya qilinadi. Kasallikning xavfli shakllari va o'limning asosiy sabablaridan biri – miokard infarktidir. Yevropa kardiologiya jamiyatining miokard va perikard kasalliklari bo'yicha ishchi guruhi ta'rifiga ko'ra, kardiomiopatiya – yurak ishemik kasalligi arterial gipertoniya, orttirilgan va tug'ma yurak poroklari bo'lmagan holda yurak mushaklarida tizimli va funktsional o'zgarishlar mavjudligi hisoblanadi.

Yurak qon-tomir kasalliklarini davolashda sekin uruvchi yurak uchun impulslar hosil qiluvchi elektron yurak stimulyator, o'ta xatarli darajada noturg'un uruvchi yurak uchun defibriliator, qon surish faoliyati buzilgan yurak uchun yordamchi ventrikulyar implanti bemorni turli holatlarda ayniqsa dori-darmonlar yordam bera olmaydigan vaziyatda holatini yaxshilash uchun yechim sifatida bemorga maslahat berilishi mumkin. Yurak klapanlarining orasidagi devori nuqsoni yurakning anatomik tuzilishidagi turg'un nuqson, kamchilik va o'zgarishlar normal qon oqimiga xalaqit beradi. Bu 3 yoshdan katta bolalarda eng tez-tez uchrab turadigan tug'ma yurak nuqsonlaridan biridir. Bunday holatda, yurakdagi o'ng va chap atriumni ajratib turadigan interdisferik septumda teshik mavjud bo'ladi. Bu teshikning mavjudligi chap atriumdan o'ngga patologik qon



oqimiga sabab bo'ladi va kelajakda yurak va o'pka muammolarini keltirib chiqarishi mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sodiqov Q.A, S.X.Shaxmurova G.A.“Yosh fiziologiyasi va gigienasi”. Darslik. Toshkent. “Yangi asr avlodi”. 2009.
2. Sodiqov Q.S. “O'quvchilar fiziologiyasi va gigienasi”.Toshkent. “O'qituvchi”.2016.
3. Xripkova A.G., Antropova M.V. “Yosh fiziologiyasi va gigienasi”. 2012.
4. Davies MJ, Woolf N, Rowles PM, Pepper J. Morphology of the endothelium over atherosclerotic plaques in human coronary arteries. Br Heart J. 1988 Dec;60(6):459-64. [PMC free article] [PubMed]
5. McGill HC, McMahan CA, Zieske AW, Tracy RE, Malcom GT, Herderick EE, Strong JP. Association of Coronary Heart Disease Risk Factors with microscopic qualities of coronary atherosclerosis in youth. Circulation. 2000 Jul 25;102(4):374-9. [PubMed]
6. Sary HC, Chandler AB, Dinsmore RE, Fuster V, Glagov S, Insull W, Rosenfeld ME, Schwartz CJ, Wagner WD, Wissler RW. A definition of advanced types of atherosclerotic lesions and a histological classification of atherosclerosis. A report from the Committee on Vascular Lesions of the Council on Arteriosclerosis, American Heart Association. Circulation. 1995 Sep 01;92(5):1355-74. [PubMed]
7. Mirraximova, M. X., and N. Yu Nishanbaeva. "Night of atopic dermatitis in children komorbid laboratory-immunological properties." IMRAS 6.6 (2023): 301-306.
8. Mirraximova M., Kh M. M., Nishanbaeva N. Y., Kasimova M. B. Psychosomatic relationships in atopic dermatitis //International Journal of Education, Social Science & Humanities. FARS Publishers, Impact factor (SJIF). – T. 6. – C. 734-738. Nishonboeva N. Genining polimorfizmi atopik dermatitda //Farg'ona davlat universiteti. – 2023. – №. 1. – C. 137-137.
9. Kh M. M., Nishanbaeva N. Y., Kasimova M. B. Psychosomatic relationships in atopic dermatitis //International Journal of Education, Social Science & Humanities. FARS Publishers, Impact factor (SJIF). – T. 6. – C. 734-738.